

UMUMTA’LIM MAKTABI 5–7 SINIF O’QUVCHILARINING TEZKORLIK VA CHAQQONLIK SIFATLARINI SOLISHTIRMA TAVSIFLASH

Atajanov Muzaffar Ulug‘bek O‘g‘li
Andijon davlat universiteti

Ushbu tadqiqot ishida Andijon shahar xalq ta’lim bo‘limiga qarashli 22-maktabning 5–7 sinf o‘quvchilarining (o‘g‘il bolalar) tezkorlik va chaqqonlik jismoniy sifatlarini rivojlanishini 30 metrga yugurish va tepping-test usullari, chaqqonlik sifatini yugurish ko‘rsatkichlariga solishtirma tavsiflangan. Shu ko‘rsatkichlar orqali o‘quvchilarning jismoniy rivojlanganliklari va jismoniy tayyorgarliklari baxolangan. O‘quvchilarda tezkorlik va chaqqonlik sifatleri ko‘rsatkichlarini 5 sinf o‘quvchilariga nisbatan 7 sinf o‘quvchilarida ishonchli darajada farq qilishi bu xarakatlarni amalga oshirishda nerv mexanizmlarini mukammalashib borayotganligini ko‘rsatadi.

Odami xarakat faoliyati, shu jumladan sport faoliyati xam ma’lum sifat ko‘rsatkichlari bilan tavsiflanadi. Asosiy jismoniy sifatlariga muskul kuchi, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik va egiluvchanlik kiradi. Ayrim mualliflar odami tezlik-kuch sifatini xam asosiy jismoniy sifatga kiritadi.

Jismoniy sifatleri rivojlanishi turli darajada tug‘ma xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Shu bilan birga individual rivojlanishda shartli refleks mexanizmi yetakchi ahamiyatga ega. Bu mexanizm konkret odami xarakat faoliyatini sifat bilan bog‘liq xususiyatleri va uni namoyon bo‘lishini o‘ziga xosligini ta’minlaydi.

Respublikamizda odami organizmining jismoniy rivojlanishi va morfofunksional holati va uni atrof-muhitning zararli omillariga moslashuv mexanizmlarini o‘rganish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga katta e’tibor berilmoqda.

Shuning uchun bolalar va o‘smirlarning jismoniy rivojlanishini morfofunksional ko‘rsatkichlarini boshqarish mexanizmlarini o‘rganish fundamental va amaliy fiziologiyaning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bolalar va o‘smirlarning morfofunksional holatini va somatotipini o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarda bir qator mualliflarning fikrlariga ko‘ra, so‘nggi o‘n yillikda yoshlar sog‘ligining pasayishi va surunkali kasalliklar tarqalishining yuqori darajasi kuzatilmoqda Lyaxovich A.B., 2004; Ushakov I.B., 2007; Ayzman R.I., 2009, funksional anomaliyalar Rapoport, 2000; Artyuxov I.P, 2006; Belov V.B, 2007; Rozenfeld, 2008.

Zamonaviy klinik–antropologik, tibbiy–morfometrik tadqiqotlarda odami organizmining fiziologik yoshiga bog‘liq konstitutsional, samototip/antropometrik ko‘rsatkichlari o‘zgarish dinamikasi xususiyatleri tahlil qilish odami organizmining salomatlik holatini baholashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi [Burakova, 2016; 3-b.].

Jismoniy rivojlanish – bu, o‘sayotgan odami organizmi salomatligining integral ko‘rsatkichi hisoblanadi va aynan, maktabda ta’lim olish davri bolalar va o‘smirlar organizmining sog‘lom jismoniy rivojlanishini shakllantirish uchun optimal davr sifatida qayd qilinadi

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Аулик И. В. Определение физической работоспособности в клинике и спорте / Москва. – Изд–во «Медицина», 1990. – С.34–56.
2. Дембо А.Г. Лёгочные объёмы // Физиология дыхания. -Л., 1973.-С. 4-18.

3.Денисова Л.В., Хмельницкая И.В., Харченко Л.А. Измерения и методы математической статистики в физическом воспитании и спорте: Учебное пособие для вузов. // Киев. – Изд-во «Олимп. л-ра», 2008. – С.7–127.

4.Искандарова Г.Т. Морфофункциональное состояние дыхательной системы юношей 18-27-летнего возраста, проживающих в условиях Узбекистана //